

BOLALAR ERTAKLARINING JANR XUSUSIYATLARI

G‘ayratova Olima

*O‘zbekiston davlat jahon
tillari universiteti talabasi.*

Ilmiy rahbar:

Salima Jumayeva

Alfraganus university

Annotatsiya. Bolalar ertaklari o‘ziga xos janriy xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar ertaklarning g‘oyaviy-badiiy etukligi, tilining ixcham, soddaligi kabi jihatlarida ko‘zga tashlanadi. Maqolada muallif bolalar ertaklarining janriy belgilari va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ertak, tahlil, badiiy-estetik ta’sir, ma’naviy-ma’rifiy jihat.*

Kirish. Nasriy turning mustaqil janrlaridan biri ertaklardir. Xalq ertaklari bolalarning ilk estetik tuyg‘ularini tarbiyalovchi, odob-axloq haqidagi dastlabki tushunchalarini shakllantiruvchi hayot darsligi sanaladi. Bolalar ertaklarining o‘ziga xosligi ularda xayoliy va hayotiy voqelikka nisbatan mustaqil fikr uyg‘otishi, voqelikka o‘z munosabatlarini bildirga olishi bilan xarakterlanadi. Bu o‘rinda bolalarga o‘qib yoki so‘zlab beriladigan ertaklar mazmuni, g‘oyasi, syujeti, kompozitsiyasi, konflikti bir-biridan farq qilganligi sababli ularning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, qiziqishlari hisobga olinishi zarur. Masalan, bog‘chalarning kichik guruhiga o‘qib yoki so‘zlab beriladigan ertaklarning asosiy xususiyatlari hajmning kichik yoki ixchamligi, bir syujetli va tilining g‘oyat sodda, tushunarli va ravon bo‘lishi bilan ajralib turadi. Katta guruhdagi bolalarga o‘qib yoki so‘zlab beriladigan ertaklar esa nisbatan ko‘p syujetli, personajlarga boy va ular o‘rtasidagi munosabatlar jiddiyroq bo‘ladi. Shu boisdan ”Bo‘ri bilan echki”, ”Maqtanchoq quyon”, ”Ochko‘z it”, ”Ikki echki”, ”Farosatsiz eshak”, ”Fil

bilan xo‘roz”, ”Qumursqa” kabi ertaklar kichik guruhlarga o‘qib berish uchun tavsiya etiladi.

Asosiy qism. ”Ochko‘z it”– syujetli, bir personajli, sodda ertak. Uning mazmuniga singdirilgan ochko‘zlik va qizg‘anchiklikning yomon oqibatlari bir it obrazi orqali qiziqarli ochib berilgan. Tabiiyki bolalar ertak voqeasini shunchaki qiziqib tinglashmaydi, balki undagi personajlar harakatini ”yomon” yoki ”yaxshi” deb baholashadi. Xalq ertaklarining ko‘pchiligi yaxshilik bilan tugaydi. Ammo ”Ochko‘z it” ertagining syujeti bunday usulda echilmaydi. It o‘z aksini suvda ko‘rgach, uning og‘zidagi suyakni tortib olmoqchi bo‘lib, o‘zini suvga tashlaydi. Biroq u ”...suyagidan ayrilib, ham shalobbo bo‘lib- rosa ivib, suvdan chiqadi” [1:20-21.] Ochko‘z itning shu tarzda o‘zini-o‘zi jazolashidan bolalar sevinishadi. Ular qalbida qizg‘anchilik, ochko‘zlik kabi yaramas odatlarga nisbatan nafrat uyg‘onadi. Ertakning g‘oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati ham ana shunda.

Xalq ertaklari orasida ”O‘tinchi chol bilan tulki”, ”O‘tinchi bilan sher”, ”Bo‘ri bilan mergan”, ”Kampir bilan shoqol”, ”Cho‘pon bilan ilon”, ”Tulkiboy” kabi ertaklar alohida guruhni tashkil etadi. Bu xil ertaklarda boshqa guruhga mansub, belgi, didaktik ma‘no kasb etgan obraz, motiv, epizodlarning qorishib kelish hodisasi kuzatiladi. Aytish mumkinki, mazkur ertaklar ma‘lum ma‘noda rivojlanishi, xususan, farqli belgilarining shakllanishi nihoyasiga etmay qolgan ertaklardir.

Bolalarni qiziqtiradigan, ular uchun qadrdon bo‘lgan mavzulardan biri – hayvonot va o‘simlik dunyosidir”[2:18.]. Ularni bu ajoyib va sehrli dunyoga olib kirishda ertaklarga xos xususiyatlardan biri – tajnis (jonli va jonsiz narsalarni insonlashtirish) va intoq (ularni insonlarday so‘zlatish) usullarining o‘rni va ahamiyati kattadir[3.28.] Jonlantirish usuli qo‘llangan ertaklar zimmasiga tarbiyaviy vazifa bilan bir qatorda bolalarning badiiy tafakkur doirasini kengaytirishga xizmat etadigan vazifalar ham yuklatilgan bo‘ladi. Bunday ertaklarning ba’zilarida biror sirli voqea va hodisa haqida muayyan omillarga tayanilganligi tufayli bolaga juda sodda ilmiy ma‘lumotlar beriladi.

Masalan, ”Qumursqa”[1:47-48.] ertagida tabiat qonuniyatlari qiziqarli syujet asosida ko‘rsatilgan. Unda muz, quyosh, bulut, yomg‘ir,

er, o't, mol, bo'ri, sichqon va qumursqalar odamlar kabi so'zlaydi. Suhbat jarayonida tinglovchi – bolalar birinchi navbatda tabiatdagi hodisalar bevosita bir-biriga bog'liqligini bilab oladilar: quyosh muzni eritadi, bulutlar quyoshning yuzini to'sadi, bulutdan yomg'ir yog'adi, yomg'ir erga singadi, erdan o't o'sib chiqadi va hakazo.

”Tajnis va intoq usullari qo'llangan ertaklar tabiatiga xos muhim xususiyatlardan yana biri ularda ishtirok etuvchi personajlarning faqat bir xislati ustida fikr yuritish orqali obraz yaratilishidir”[4.53-54.] Ertak personajlariga xos bu xususiyat ayrim bolalar xarakterida namoyon bo'ladi. Qaysarlik qoralangan ”Ikki echki”, o'zboshimchalik fosh etilgan ”Uch tulki”, maqtanchoqlikning yomonligi ko'rsatilgan ”Maqtanchoq quyon”, urushqoqlik, qizg'anchiqlikning yomon oqibatlar keltirishi tasvirlangan ”Ochko'z it” kabi hayvonlar haqidagi ertaklar fikrimiz dalilidir. Mazkur ertaklar bolalar fe'l-atvorida uchraydigan yomon xislatlar turli hayvonlar obrazi vositasida, jonl tasvir va qiziqarli epizodlarda ochib berilgan. Masalan, ”Ikki echki” ertagi soddagina xabardan boshlanadi: ”Ikki qaysar echki bo'lgan ekan” [1.49-50.] Ana shu xabarning o'ziyoq bolaning butun diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bolalarga ertakda echki ishtirok etishining o'ziyoq qiziq tuyuladi. Buning ustiga ular ikkita va ikkovi ham qaysar. Ertak voqealari haqida eshitish, shubhasiz, juda qiziqarli bo'ladi.

Ertakda birorta ortiqcha jumla yo'q. Voqea iplari bir-biriga mustahkam bog'langan syujet tez rivojlanadi. Echkilar ”anhor ustidagi yakka cho'p-ko'prik ustida uchrashib qolishadi”. Tanlangan joy juda o'rinli. Chunki ana shu ”yakka cho'p-ko'prik” ustida ularning xarakteridagi qusur-qaysarliklarni butunicha bolaga ko'rsatish imkoni bor. ”Ikkisidan biri yo'l berishi kerak ekan”. Ikki echki o'rtasida keskin to'qnashuv boshlanadi. Echkilar bir-birlariga yo'l berishni sira istamaydilar. Voqea kulminatsion nuqtaga etadi. Echkilar ”achchiqlashib suzishib ketishadi”. Qaysarlik ularning aqlini shu darajada ko'r qilib qo'yadiki, natijada ikkalasi ”uch qadamdan orqaga” qaytib, bir-birlariga hamla qilishadi. ”Ikki echki yumaloq-yostiqlik bo'lib anhorga ag'darilib ketibdi”. Ertak konflikti ana shunday hal bo'ladi. Echkilar, qilmishiga yarasha jazolanadi. Albatta, kattalar nazarida bu unchalik qattiq jazo

emas. Ammo urushayotgan echkilar holatidan asablari tarang tortgan bolaning nazarida bundan ortiq jazo bo‘lishi mumkin emas. Ertaklarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini shundaki, uning mazmuniga singdirilgan qaysarlik hech kimga foyda keltirmaydi, u aqlsizlikning hunuk bir ko‘rinishidir, degan g‘oya bola ongiga hech qanday pand-nasihatsiz etib boradi.

Xulosa

Xulosa shuki, bolalar ertaklarining janriy belgilari alohida xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar ertaklarning g‘oyaviy-badiiy etukligi, tilining ixcham, soddaligi kabi jihatlarda ko‘zga tashlanadi. Ayni xususiyatlar xalq ertaklari vositasida bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, tafakkur tarzini rivojlantirish va estetik zavq berishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbek xalq ertaklari. Ikki tomlik. 1-tom.—Toshkent: O‘zdavnashr, 1993.
- 2.Imomov K. “Hayvonlar haqidagi ertaklarning oraliq tipi”//O‘zbek tili va adabiyoti. 1991. №2. – B. 18.
- 3.Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertaklar poetikasi. – T.: Fan. 1996. – 28
- 4.Sarimsoqov B.I. Epik janrlar diffuziyasi//O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. – T.: Fan. 1991. – B. 160.
5. Turdiyeva Y. Ўзбек адабиётида бадий услуб ҳодисаси. Elektron 2025 йил 14 октябрдаги Тил адабиёт ва журналистика таълими муаммо ечим ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий-амалий konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17601707>
6. YS Azimboyevna . [Literary interpretation of motifs in ray bradbury's works](#) - International journal of advanced ..., 2025
7. Abdusalomovna, S. M. (2025). Erkin A'zam nasrida ijodkor obrazi talqini. *Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*, 17(02), 747-749. SM Abdusalomovna – Pedagogik islohotlar va ularning ..., 2025

8. Inomjonovna, I. D. (2025). Isajon sulton romanida bilga xохон siymosining zamonaviy talqini. *pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*, 17(02), 744-746.
9. Jurayeva, N. G. (2022). O‘zbek adabiyotshunosligida bayt poetikasi tushunchasining tutgan o‘rni va tipalogik asoslari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 729-733.
10. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
12. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.